

## **XX ASR BOSHLARIDA ANDIJONDAGI “TARAQQIYPARVAR” TASHKILOTI FAOLIYATI: ARXIV HUIJATLARI TAHLILI**

**Elyorbek Kaxramonjon o‘g‘li ABDULXAYEV**

assistent

Andijon davlat texnika instituti

Andijon, O‘zbekiston

e-mail: [elyorbekabdulxayev0708@gmail.com](mailto:elyorbekabdulxayev0708@gmail.com)

ORCID ID 0009-0001-0495-5301

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada 1916–1917-yillarda Farg‘ona vodiysi, xususan Andijon uezdida ijtimoii-siyosiy ahvol arxiv hujjatlari (461-fond) asosida keng ko‘lamda tahlil qilingan. Tadqiqotning diqqat markazida mustamlaka tuzumi ma‘muriyati tomonidan “Taraqqiyparvar” deb nomlangan yashirin siyosiy tuzilmaning faoliyati, uning tarkibiy tuzilishi va kurash usullari turadi. Unda arxiv materiallarining quruq faktologiyasidan tashqari, o‘sha davr odamlarining qismati va milliy ozodlik harakati vakillarining ma‘naviy portreti ochib berilgan. Shuningdek, mazkur tarixiy tajribaning bugungi Yangi O‘zbekiston davlati siyosati va Uchinchi Renessans poydevori bilan vorisiiylik aloqalari ilmiy asoslangan.

**Tayanch so‘zlar:** Turkiston, Andijon, arxiv, Taraqqiyparvar, Ubaydulla Xo‘jayev, 1916-yil, mustamlaka siyosati, milliy uyg‘onish, jadidchilik, huquqiy davlat, inson omili, Yangi O‘zbekiston,

## **ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ «ТАРАККИЙПАРВАР» В АНДИЖАНЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА: АНАЛИЗ АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ**

**Элёрбек Кахрамонджонович АБДУЛХАЕВ**

ассистент

Андижанский государственный технический институт

Андижан, Узбекистан

### **Аннотация**

В данной статье на основе архивных документов (фонд 461) всесторонне анализируется общественно-политическая ситуация в Ферганской долине в 1916–1917 гг., в частности в Андижанском уезде. В центре исследования находится деятельность подпольной политической структуры «Тараккийпарвар», её организационная структура и методы борьбы. Помимо сухой фактологии, в статье раскрываются человеческие переживания, судьбы личностей и духовные портреты представителей национально-освободительного движения. Также научно обоснована преемственность этого исторического опыта с современной государственной политикой Нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** Туркестан, Андижан, архив, Тараккийпарвар, Ubaydulla Xodjaev, 1916 год, колониальная политика, национальное возрождение, джадидизм, правовое государство, человеческий фактор, Новый Узбекистан.

XX asrning birinchi choragi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish davri bo'ldi. Ayniqsa, 1916-yilgi xalq qo'zg'olonlaridan so'ng o'lkada mustamlaka tuzumi ma'muriyatiga nisbatan norozilik kayfiyati ochiq va yashirin shakllarda namoyon bo'la boshladi. Andijon uyezdi ushbu siyosiy jarayonlarning markazi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda shakllangan "Taraqqiy-parvar" (Taraqqi-Parvar) yashirin tashkiloti nafaqat mahalliy aholining huquqlarini himoya qilish, balki ma'muriy tizim ichiga kirib borish va uni ichidan turib nazorat qilishga intilishi bilan ajralib turadi.

Arxiv hujjatlari shuni ko'rsatadiki, ushbu tashkilot chor hukumatining mahalliy idoralari uchun "davlat ichidagi davlat" darajasiga ko'tarilgan. Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining maxfiy ma'ruzalarida ushbu guruhning faoliyati "тонко разработанная система" (nozik ishlab chiqilgan tizim) sifatida ta'riflanishi bejiz emas. Tashkilot a'zolari ma'muriy savodxonlik, matbuot imkoniyatlari va xalqaro siyosiy aloqalarni o'zaro uyg'unlashtira olganlar. Ushbu maqolada mazkur yashirin tashkilotning kadrlar tarkibi, moliyaviy manbalari va Ubaydulla Xo'jayev boshchiligidagi "huquqiy front" faoliyati O'zbekiston Milliy arxividagi I-461-fond asosida chuqur tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotning tub mohiyati shundaki, biz arxiv hujjatlaridagi raqamlar va qat'iy rasmiy tildan iborat matnlar ortiga yashiringan tirik insonlar taqdirini qidiramiz. Mustabid tuzum qatag'onlari va tazyiqlari ostida qolgan bu insonlarning ichki dunyosi, ularning vatan ozodligi va millat sha'ni yo'lidagi shaxsiy jasorati bugungi kun yoshlari uchun haqiqiy ibrat maktabidir. Biz faqat "nima bo'lgan?" degan savolga emas, balki "o'sha davr qahramonlari nimalarni his qilgan?" degan savolga ham javob izlaymiz

Mavzu bo'yicha tarixshunoslikni o'rganish shuni ko'rsatadiki, uzoq yillar davomida sovet mafkurasi ta'sirida ushbu davr tarixi biryoqlama talqin qilib kelindi. "Taraqqiyparvar" kabi milliy tashkilotlar sovet tarixchilarining asarlarida, xususan, P.N. Pospelov tadqiqotlarida faqatgina "reaksion", "burjua-millatchi" yoki "shantajchi guruh" sifatida tavsiflangan Bu yondashuv harakatning asl milliy

va ozodlik mohiyatini inkor etishga, uni sinfiy kurash doirasiga siqib chiqarishga xizmat qilgan edi.

Turkistondagi siyosiy harakatlar tarixi P.G. Galuzo, H. Ziyoev va B. Hayit kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Biroq, ko'plab tadqiqotlarda jadidchilik harakati asosan ma'rifatparvarlik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. "Taraqqiy-parvar" tashkilotining Andijon uyezdi miqyosidagi faoliyati, ularning mahalliy boshqaruv tizimiga (volost, uyezd boshqarmasi) kirib borishi va o'sha davrdagi "yashirin hokimiyat" funksiyasini bajargani arxiv hujjatlari darajasida hali to'liq tizimlashtirilmagan.

Ubaydulla Xo'jayevning faoliyati bo'yicha mavjud adabiyotlarda uning ko'proq Toshkentdagi faoliyati va "Sadoi Turkiston" gazetasi bilan bog'liq jihatlari tilga olinadi. Ushbu maqolada esa uning Andijondagi huquqiy advokatlik faoliyati va mahalliy ma'muriyatni "ichidan parchalash" strategiyasi arxiv faktlari bilan boyitilgan.

Biroq, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarix fani mafkuraviy kishanlardan xalos bo'ldi. S. Azamxo'jayev va Q. Rajabov kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari natijasida jadidchilik harakati va uning tarmoqlari tarixiga nisbatan xolis va ilmiy yondashuv shakllandi. Shunga qaramay, Andijon uezdidagi arxiv hujjatlarining (O'z MA, I-461-fond) inson omili, shaxsiy motivatsiya va tarixiy antropologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinishi hamon dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu hujjatlar shunchaki ma'lumot beruvchi qog'ozlar emas, balki kurash va iztirobning guvohidir.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy obyektivlik va tizimlilik prinsiplariga tayanildi. Tadqiqotda tarixiy obyektivlik, xronologik izchillik va manbashunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor O'zbekiston Milliy arxividagi I-461-fond ("Farg'ona viloyati harbiy gubernatori boshqarmasi"), 1-ro'yxat, 1968-ish raqamli hujjatlar yig'indisiga qaratildi. Tadqiqot davomida hisobotlar, so'roq bayonnomalari va gubernatorga yo'llangan ma'ruzalar "kontent-analiz" qilindi. Shuningdek, chor amaldorlarining subyektiv qarashlari va haqiqiy voqelik o'rtasidagi farqni aniqlash uchun tarixiy-qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi.

Ishning metodologik asosi quyidagi usullardan iborat:

1. *Arxiv evristikasi*: O‘zbekiston Milliy arxividagi I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1968-ish hujjatlar yig‘indisi birlamchi manba sifatida tanlab olindi va o‘rganildi.
2. *Paleografik va diplomatik tahlil*: 1916–1917-yillarga oid qo‘lyozma va mashinkada yozilgan maxfiy hisobotlar, so‘roq bayonnomalari va ma‘ruzalarning tili hamda mazmuni tahlil qilindi.
3. *Tarixiy-qiyosiy metod*: Hujjatlarda keltirilgan ma‘lumotlar o‘sha davrdagi rasmiy hukumat qarashlari va mahalliy aholi manfaatlariga ko‘ra qiyoslandi.
4. *Tarkibiy-funksional tahlil*: “Taraqqiyparvar” tashkilotining ichki bo‘linishi (tarjimonlar guruhi, matbuot guruhi, huquqiy guruh) va ularning vazifalari tizimli ravishda ko‘rib chiqildi.
5. *Interpretatsiya*: Chor amaldorlarining “tovlamachilik” yoki “shantaj” deb atagan harakatlari milliy ozodlik harakatining iqtisodiy-siyosiy kurash usullari sifatida qayta talqin qilindi.

Arxiv materiallari (1968-ish) tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Taraqqiyparvar” tashkiloti a‘zolari o‘z faoliyatida shaxsiy sadoqat, milliy g‘urur va insoniy birdamlikni hamma narsadan ustun qo‘yishgan. Hujjatlardagi qat‘iyat va o‘zaro ishonch bu harakatning naqadar chuqur ildiz otganini ko‘rsatadi.

Tashkilotning boshqaruv apparatiga ta’siri shunchalik kuchli bo‘lganki, hatto rus amaldorlari ham ulardan hayiqib turganlar. “Andijon uyezdi tarjimonlari Sulaymon Kelgenboyev, Akbar va Madamin Boytursunovlar sakkiz yil davomida barcha ma‘muriy ishlarni o‘z nazoratlariga olganlar” [2; 3].

Guruh o‘z moliyaviy qudratini mahalliy amaldorlarni “sog‘ish” va ularni himoya qilish orqali shakllantirgan. Masalan, Saditdin-Ali-Xoji-Admon-Xodjayevning to‘rt marta lavozimga qaytarilishi uchun sarflangan mablag‘lar haqida hujjattda shunday deyiladi: “Ushbu guruh amaldorlarni lavozimda saqlab qolish uchun 9 ming rublgacha mablag‘ undirgan” [3; 7].

Sulaymon Kelgenbayevning tizim ichidagi jasorati shundaki, Kelgenbayev uezd ma‘muriyatida rasmiy tarjimon bo‘lib ishlagan bo‘lsa-da, uning qalbi milliy

uygʻonish harakati bilan birga edi. U oʻz mavqeidan foydalanib, mustamlaka hukumatining mahalliy aholiga qarshi tayyorlayotgan maxfiy rejalari haqida “Taraqqiyparvar” aʼzolarini va oddiy xalqni ogohlantirib turgan. Chor maʼmurlarining hujjatlarida uning mahalliy aholi, ayniqsa “tuzemets” vakillari bilan haddan tashqari yaqinligi, ularning manfaatini himoya qilishi katta xavotir bilan qayd etilgan. Kelgenbayev oʻz karyerasi va hayotini xavfqa qoʻyib boʻlsa-da, millatiga xizmat qilishni sharaf deb bilgan.

Ayniqsa, xalq sudyalarining faoliyati Kelgenboyev guruhi tomonidan toʻliq nazorat qilingan: “Xalq sudyasi Islomxoja-Pansat-Xoji-Pansatov oʻziga nisbatan qoʻzgʻatilgan tergovni toʻxtatish evaziga Kelgenboyevga 500 rubl berishga majbur boʻlgan” [4; 7]. Bunday holatlar tashkilotning naqadar keng tarmoqli ekanligini koʻrsatadi: “Ularning taʼsiri ostida boʻlgan shaxslar har qanday tergovdan qutulib qolishiga ishonchi komil edi” [5; 8].

Ubaydulla Xoʻjayev: Milliy adolat va huquq himoyachisi. Xoʻjayevning faoliyati arxivda "provokatsion" deb baholansa-da, aslida u xalqning huquqiy savodini oshirish va ularni mustamlaka amaldorlarining oʻzboshimchaligidan himoya qilishga bel bogʻlagan edi. Uning har bir yozgan arizasi va uezd boshliqlariga yuborgan murojaatlari ortida bir insonning iztirobi, bir oilaning buzilgan adolati yotganini arxivdagi har bir varaq tasdiqlaydi. Xoʻjayev milliy harakatni huquqiy maydonga olib chiqishga uringan ilk qaldirgʻochlardan biri edi.

Ubaydulla Xoʻjayevning paydo boʻlishi tashkilotning faoliyatini intellektual darajaga olib chiqdi. “Xoʻjayev Bozor-Qoʻrgʻon jamiyati nomidan uchastka pristavi va oqsoqol ustidan ketma-ket uchta shikoyat ariza yozib, ularni lavozimidan chetlatishga erishgan” [6; 4]. Bu esa aholi koʻz oʻngida uning nufuzini keskin oshirdi: “Ilgari hech kimga nomaʼlum boʻlgan bu advokat xalq uchun eng ishonchli sanovnikka aylandi” [7; 5].

Xoʻjayevning siyosiy ambitsiyalari oʻlka chegarasidan chiqib, markaziy hukumatga borib taqalgan: “U oʻzini Petrograddagi Kerenskiy va Tevkelev kabi nufuzli shaxslarning himoyasidagi odam sifatida koʻrsatib, mahalliy aholi orasida panislomistik gʻoyalarni targʻib qilgan” [8; 6]. Shu bilan birga, matbuot qurolidan

ham ustalik bilan foydalanilgan: “Muharrir Chaykin va Shapiro “Turkiston ovozi” gazetasini ushbu guruhning targ‘ibot quroliga aylantirib, tirajni oshirish maqsadida hukumatga qarshi materiallar bosishgan” [9; 8].

Mulla Abduqodirbek bukilmas iroda timsoli. 1916-yilgi maxfiy so‘roq bayonnomalari o‘sha davr yoshlarining naqadar irodali bo‘lganini ko‘rsatadi. Mulla Abduqodirbekning so‘roq jarayonidagi javoblari, o‘z maslakdoshlarini va harakatning maxfiy rejalarini sotmagani, aksincha, mustamlaka siyosatining chirkin tomonlarini yuzga aytgani e‘tiborga molik. Bu shunchaki so‘zlar emas, balki qatag‘on mashinasi qarshisida turgan insonning ma‘naviy g‘alabasidir.

Yirik mulkdorlar ham ushbu yashirin kuch bilan hisoblashishgan: “Andijonning boy regenti Alimqulov ham o‘z lavozimini saqlashda ushbu “Taraqqiyparvar” partiyasining ko‘magiga tayangan” [10; 5]. Chor ma‘muriyati esa buni “Aholi orasida qo‘rquv va tahdid orqali o‘rnatilgan hokimiyat” [11; 4] deb baholagan.

Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori Ivanov o‘zining maxfiy hisobotlarida “Taraqqiyparvar” tashkilotini “panislomistik” g‘oyalari niqobi ostida faoliyat yuritayotgan “shantajchilar to‘dasi” sifatida tasvirlaydi. Bu yerda subektiv inson omili va mustamlaka siyosatining “ayblov strategiyasi” yaqqol ko‘rinadi. Chor ma‘muri o‘z boshqaruvidagi tizimli inqirozlarni, xalqning noroziligini oqlash va yuqori idoralarga hisobot berish uchun milliy yetakchilarni “jinoyatchi” sifatida ko‘rsatishi tabiiy edi.

Vaholanki, arxiv hujjatlarining chuqur tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu harakat bugungi fuqarolik jamiyatining ilk poydevori edi. Ular o‘z davrining matbuoti va huquqiy vositalaridan foydalanib, xalqning huquqini himoya qilishga, ularni siyosiy jihatdan birlashtirishga intilishgan. Gubernatorning vahimasi aslida mana shu uyg‘onishdan edi.

Tarix shuni ko‘rsatadiki, Vatan ozodligi va millat ravnaqi yo‘lidagi kurash hech qachon izsiz ketmaydi. Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida jadid bobolarimizning, jumladan “Taraqqiyparvar” tashkiloti vakillarining

ma'rifatparvarlik va ozodlik g'oyalari davlatimiz siyosatining ma'naviy-axloqiy tayanchiga aylandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Taraqqiyparvar" tashkiloti XX asr boshidagi Turkiston milliy harakatining eng murakkab va serqirra shakllaridan biri bo'lgan. Arxiv hujjatlarini tahlil qilish asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Guruh faqatgina bir necha tarjimonning ittifoqi emas, balki aniq moliyaviy manbalarga, huquqiy himoya tizimiga va matbuot organiga ega bo'lgan siyosiy institut sifatida shakllangan.

Ubaydulla Xo'jayev boshchiligidagi faoliyat ochiq qurolli qo'zg'olondan ko'ra, chorizmning o'z qonunlaridan unga qarshi foydalanish strategiyasi naqadar samarali bo'lganini ko'rsatdi.

Andijon uyezdi misolida ma'muriy boshqaruv amalda chor amaldorlari qo'lida emas, balki tarjimonlar va huquqshunoslar orqali boshqariladigan yashirin guruh qo'lida bo'lganligi aniqlandi.

Tashkilotning Petrograddagi Davlat Dumasi fraksiyalari bilan aloqasi Turkiston ozodlik harakatining umumrossiya siyosiy jarayonlari bilan integratsiyalashganini isbotlaydi.

"Mustabid tuzum qatag'onlari va tazyiqlari ostida qolgan bu insonlarning ichki dunyosi, ularning vatan ozodligi va millat sha'ni yo'lidagi shaxsiy jasorati bugungi kun yoshlari uchun haqiqiy ibrat maktabidir" [1; 245].

Xulosa qilib aytganda, "Taraqqiyparvar" tajribasi keyinchalik Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamlı siyosiy islohotlar uchun poydevor vazifasini o'tagan. Ushbu arxiv hujjatlari o'zbek davlatchiligi tarixining "oq dog'lari"ni aniqlashda eng ishonchli manba bo'lib qolaveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
2. О'з МА, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 3-varaq.

3. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 7- varaq.
4. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 7- varaq.
5. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 8- varaq.
6. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 4- varaq.
7. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 5- varaq.
8. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 6- varaq.
9. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 8- varaq.
10. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 5- varaq.
11. O'z MA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1968-ish, 14- varaq.